

- Keling, suhbatimizni adabiyotning jamiyat hayotidagi vazifasidan boshlasak...

- Adabiyot, umuman, san'at - millatning qalbi, ruhi, ko'ngli. San'atga e'tiborsizlik millat ko'nglini mensimaslik bilan barobar. Men chinakam san'at haqida gapirayapman. Bitta oldi-qochdi kitob yozib, yoki uch-to'rtta chuchmal qo'shiq aytib, o'zini san'atkor deb yurganlarga bu gapning aloqasi yo'q. Umuman, badiiy degan so'zni ehtiyot bo'lib qo'llash kerak. Garchi, barcha adabiy-badiiy asarlarga shunday nisbat berilsa-da, men Navoiy, Bobur, Mashrab, Qodiriy kabi ulug'larning asarlarini badiiy asar deb hisoblayman.

- Bu juda yuqori mezon emasmi?

- Yo'q. Yigirmancha asrda minglab nomda, millionlab nusxada "badiiy asarlar" chop etildi. Xo'sh, bugun qaysi biri davrning sinoviga dosh berib, sizni bizga estetik zavq bera olayapti? Barmoqlaringizning hammasini sanab o'tirmang, baribir ortib qoladi.

- Bu sizning shaxsiy xulosangizmi? Axir, bugungi darsliklarning o'ziga qanchadan-qancha ijodkorlar kiritilgan?

- Darsliklar ta'limiy ahamiyatga ega. Bunday qo'llanmalar san'atdagi estetik talablarga to'la mos kelishi shart emas. Darsliklar dastlabki didni tarbiyalaydi, yuksak didni emas. Yuksak didni muhit tarbiyalaydi. Keyin odamning, o'quvchining o'zi didini tarbiyalaydi. Did masalasi tafakkur darajasi bilan bog'liq bo'lgani uchun uni pasaytirishga, sayozlashtirishga hech kimning haqqi yo'q. Ziyolilar ana shu didni saqlab qolish uchun mas'uldirlar.

- Bugun didni nimalar ko'tarayapti, nimalar sayozlashtirayapti, deb o'ylaysiz?

- Ko'tarayotganlarga rahmat. Lekin, agar kitob do'konlariga borsangiz, didimiz qay darajada ekanini bilib olasiz. Aksariyat odamlar Navoiyni, Boburni yoki jilla qursa, "Jahon adabiyoti" jurnalini emas, oldi-qochdilarni, bir ayolning aldanib qolishi-yu, fohishaning boshidan kechirganlarini, o'g'ri yoki mafiyaning sarguzashtlarini talashib sotib olishadi. Shuning uchun aynan shunday kitoblar nashri ko'paydi. Ular iqtisodiy ma'noda o'zini oqlab, noshirga foyda keltirayapti, boshqa bir tomondan esa umumiy didni sayozlashtirishga xizmat qilayapti. O'sha kitoblarning ayrimlarida tilning avra-astari ag'darib tashlangan. Til jozibasi umuman yo'q. Agar uni o'qiyotgan o'quvchi shu asarlarning tilidan o'rnak olsa, unda ertaga til sohasidagi tashvishlarimizni tasavvur qilavering. Umuman, bugungi bor gapni aytilish kerak: biz keng o'quvchilar ommasining didini shunday asarlarga berib qo'ydik. Bu so'zni muqaddas bilgan barcha adabiyotchilar uchun xavotirli holdir. Badiiy so'z sohiblari maydonni shunday asarlarga berib qo'ygani uchun, avvalo, ularning o'zlari aybdordir.

- Balki, shunday asarlarni nashr qilmaslik kerakdir?

- Nazorat o'rnatish kerak, albatta. Lekin biz bozor davrida yashayapmiz. Talabga qarab taklif bo'ladi. Men noshirlardan emas, ko'proq o'zimizdan xafa bo'laman. Demak, ommaviy didimiz shu darajada ekan-da, deb.

- Didni faqat kitoblar pasaytirayapti, deb o'ylaysizmi?

- Yo'q. Bu sohada tashvishimiz ancha katta. Xususan, qo'shiqchiligimiz. Eng achinarlisi, qo'shiqning ommaviylik ehtiyoji katta. Lekin bugun eshitayotgan qo'shiqlarimizning yarmini eshitmasak ham hech narsa yo'qotmaymiz.

- Balki yozuvchilar yozmay qo'ygani uchun ham sayoz asarlar ko'payib ketgandir?

- Bu bir sababi. Asosiy sababi chinakam adabiyotni targ'ib qilolmayotganimizda. Biz hamisha o'quvchilarga tijorat adabiyoti bilan haqiqiy adabiyotning farqini tushuntirib turishimiz kerak. Chunki navoiyxonlik, bedilxonlik, mashrabxonlik qilgan otalarimiz didi bilan bunday bugungi yengil-elpi asarlarni yopirilib o'qiyotgan o'quvchilar didi o'rtasidagi farqni tasavvur qilib ko'ring. Bedilning bitta ruboyisi haqida butun bir katta falsafiy sharh yozsa bo'ladi. Lekin tijorat asarlarining o'ntasini jamlasangiz, hatto bir varaq ham ahamiyatli fikr yozolmaysiz. Chunki bu asarlar didga emas, ko'proq sotishga mo'ljallangan. Bu butun dunyoga, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarga ham xos muammo. Deylik, Folknerni Amerikada juda kam odam o'qiydi. Kam odam biladi. Kam nusxada chop etiladi. Lekin uni Amerika entsiklopediyasida Amerika madaniyatining bir qismi, Amerika adabiyoti faxri deb yozib qo'yishgan. Haqiqiy adabiyotga baho berilayotganda tijorat asarlaridan farqlab turuvchi mezonga hamisha amal qilishadi. Asarlari million nusxada bosilayotgan tijoratchi-yozuvchiga hech qachon haqiqiy yozuvchiga berilgan nisbat berilmaydi. Mana shuning o'zi targ'ibot.

- Bu fikrlar adabiyotning ijtimoiy vazifasini birlamchi qilib qo'ymaydimi?

- Har qanday adabiyot o'z davrining mahsuli. Asar yozilayotgan davrini u yoki bu jihatdan aks ettiradi. Adabiyotdagi mavzular ham baribir o'z zamonasining tafakkuridan, yashash tarzidan kelib chiqib yoziladi. Faqat daholar o'z davrida turib, o'z davri kechinmalarini adabiy ehtiyotga aylantira oladi. Adabiyotning ijtimoiy vazifasi shunda ko'rinadiki, uzoq emas, XX asr adabiyoti XX asr tafakkuri va ijtimoiy hayotning yangilanishiga ta'sir o'tkazdi. Deylik, Kafka asarlaridagi "iztirob" va "Jazo koloniyasi"ni o'sha payti sezishmagan, ijtimoiy tafakkur unga bir alamzadalik in'ikosi sifatida qaragan bo'lishi mumkin. Biroq Kafkaning o'limidan so'ng butun dunyo kommunistik va fashistik koloniyalarning dahshatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rdilar. Shundan keyin butun dunyo birdaniga Kafkani o'qiy boshladi. Tasavvur qilingki, Kafka tirikligida uni yozuvchi sifatida faqat o'rtoqlari tan olardi. Ijtimoiy tafakkur Kafka tahlil qilgan masalalarga duch kelgach, adabiyotning ulkan vazifasi borligini go'yo angladilar.

Adabiyot kelajak va inson xaqidagi go'zal iztiroblar va qayg'ular aks etadigan hamda insonning tafakkurini bu iztiroblardan betinim xalos bo'lishga undaydigan bir vosita. Adabiyot odamni ozod bo'lishga undaydi. U chaqirmaydi, u ichdan, his-tuyg'ularga ta'sir etish orqali undaydi. Shu sababli har bir davr ijodkori oldida o'z davri qahramonini yaratishdek buyuk mas'uliyat doimo mavjud. O'z davrining odami qanday o'ylayotgani, qanday yashayotgani, qanday fikrlayotgani, nima iztirob chekayotgani, nima uni qiynoqqa solayotgani, uning ichki dunyosi qanday ekani hamisha ijodkorning oldidagi asosiy vazifalardandir.

Tasavvur qilaylik, bugungi yoshlar jinoyatchi to'dalar xaqidagi yoki ularga ma'lum ma'noda xayrixoh bo'lib yozilgan adabiyotni o'qiyapti va davr qahramonlari shular deb o'ylayapti. Bu odamlarning dunyoqarashlari va yashash tarzleri ularning ongiga ta'sir etadi. Haqiqiy adabiyotni tushunmagan yoshlar bu odamlarni davr qahramonlari sifatida qabul qiladi. Bugungi o'qilayotgan va o'zini adabiyot namunasi deb atayotgan aksariyat asarlardan chiqadigan xulosa bu. Ya'ni, doimo go'zallikni, ezgulikni, Vatanni va millatni tarannum etib kelgan adabiy did kimning qo'lida, degan savolga javob topish vaqti keldi. Gap adabiyotni teran tushunadigan ziyoli xaqida borayotgani yo'q. Gap ommaning adabiy didi qanday asarlarning yo'rig'ida ekanligida.

Agar hazrat Navoiy asarlarini yoshu qari o'qib, TAHLIL QILIB, uning ma'nosi va falsafasiga yetadigan darajada bo'lganda bu gaplarga o'rin qolmasdi. Tabiiyki, o'zini adabiyot namunasi sifatida namoyon etayotgan asarlarning o'rni ham aniq bo'lardi. Lekin bugun aynan oldi-qochdi asarlarga mos did ommaviy didga aylanayapti. Shuning uchun ham bugun adabiyotga ijtimoiy buyurtma tushyapti: shu Vatanga mansub va shu millat uchun qayg'urayotgan, shu millatning azaliy an'alarini, millat qiyofasini saqlagan, o'zini kelajak oldida, ezgulik oldida mas'ul deb bilgan qahramon yaratish...

Xullas, har bir ijodkor adabiy didni yuksak darajada saqlab qolish haqida qayg'uradigan payt keldi. Buni tadbirlar o'tkazib yoki deklarativ qahramonlar yaratish bilan hal etib bo'lmaydi. Shu ma'noda did uchun hammamiz mas'ulmiz. Didni sayoz bellistristika

This is not registered version of TotalDocConverter

qo'llanib, o'z yozuvchining va atamiy o'zining eng katta ijtimoiy vazifasidir. Shu bilan birga, masalani bunday qo'yish ham aslida noto'g'ri. Biz adabiyotning o'zimiz istaganday ijtimoiy vazifa bajarishini istaymiz. Masala shundaki, biz o'z ehtiyojimizga qarab, adabiyotdan u yoki bu vazifani bajarishni talab qilayapmiz. O'zimizga ayni paytda zarur narsani talab qilayapmiz. Bizdan bugun odamlarni oldinga boshlaydigan adabiy asarlar yozish talab qilinayapti. Bu ijtimoiy ehtiyoj. Bu ehtiyojni badiiy asar - san'at asari bilan qondirish kerak. Lekin bu ehtiyojni adabiyotning bosh vazifasiga aylantirmaslik kerak. Bu ehtiyoj bugunning bosh vazifasi. Ertaga adabiyotga bo'ladigan ehtiyoj o'zgaradi.

- Sizning asarlaringizda shoirona ruh kuchli. Buni o'zingiz qanday izohlaysiz?

- Buni o'quvchilar izohlasin. Men o'zimga ma'qul shaklda yozaman. Qolgani o'qiydiganlarga havola.

- Lekin sizni modernga moyil yozuvchi deyishadi. Shukur Xolmirzaev ham buni sizga aytgan ekan...

- Shukur aka bilan bu haqda gaplashganim esimda yo'q. Keyin men hech qachon bir moderncha yozib qo'yay, deb yozmaganman.

O'zim qanday o'ylasam, qanday tushunsam shunday yozaman. Keyin, nega shu modern degan atamaga yopishib oldik, hayronman.

Men atamalarni tan olmayman, so'z san'atini tan olaman. Hazrat Navoiy zavq bergani kabi bizning tasavvurimizda o'ta modernchi

bo'lgan Kafka, Kamyu, Bekketlar ham menga san'at nuqtai nazaridan zavq beradi. Meni ularning qaysi oqimga mansubligi

zarracha qiziqitirmaydi.

- Demak, o'zingizni modernchi yozuvchi deb hisoblamaysiz...

- Yo'q, hisoblamayman. Menga atamalarning mutlaqo qizig'i yo'q. Atamalar adabiyotshunoslarga kerak, bir-birlari bilan bahslashib turishlari uchun.

- Bugungi adabiy tanqidchilikka munosabatingiz...

- Bizda adabiy tanqid yo'q, taqrizchilik bor. Adabiy tanqid bu - falsafa bilan bog'liq jarayon. Falsafa yo'q joyda adabiy tanqid

bo'lmaydi. Adabiy tanqid - asar haqida falsafiy fikrlay olish qobiliyatidir.

- Ba'zan yoshlar "G'arbga taqlid qilayapti" degan gaplarni eshitib qolamiz...

- "G'arbga taqlid qilayapti" deganlar ham yoki teskarisini aytayotganlar ham o'zlariga ma'qul bo'lgan mavzuni munozara qilib

yotishibdi. Bunday bahslar ko'p bo'lgan. Adabiyot bunday bahslarga qarab rivojlanmagan. Uni iste'dodlar yangilagan hamisha.

Iste'dod esa hech kimga mansub emas. U o'ziga mansubdir. Milliy adabiyotni ham, jahon adabiyotini ham iste'dodlar yangilaydi.

Iste'dodlari yangilanayotgan adabiyot - bu yangilanayotgan jahon adabiyotidir.

- Siz asarning yaxshi-yomonligini qanday ajratasiz? Nimasiga qarab baho berasiz?

- Adabiyot kosibchilik emas, degan ekan Abdulla Qahhor. Bu gapda jon bor. Go'zallik barcha qirrasini, barcha zarrasini, barcha

tomoni, barcha xususiyati uyg'un holda yaraladi. Aynan shu uyg'unlikni biz go'zallik deymiz. Asar ham shunday. U uyg'unlik

mevasidir. Agar ana shu qirralardan aqalli bir tomoni uyg'unlashmasa, badiiy asar degan talabga javob bermaydi. Adabiyotning

mezoni katta. Unga munosib asar yozish mas'uliyati bor yozuvchi qalamidan yomon asar yaralmaydi.

- Bir maqolangizda "ijod falsafasi" degan iborani ishlatgansiz. Shuni kengroq izohlab bersangiz.

- Men ijodni o'rganishga, tahlil qilishga arzigulik butun boshli falsafa deb o'ylayman. Chunki ayni ijod lahzasi bir mantiq inkor

etilib, obrazlar qiyofasida yangi dunyo paydo bo'ladi. Inson ayni ijod qilayotgan paytdagina buyuklashadi. Ijod namunasi

bo'lmagan barcha narsa yasamalikka, soxtalikka, aldovga olib keladi. Chunki ijodgina kishida zavq uyg'otadi, zavq beradi. Ana

shu zavq samoviy zavqdir. Har birimiz haqiqiy san'at asariga duch kelganimizda shuurimizda asardagi go'zallik bilan

uyg'unlashadigan hissiyotlar paydo bo'ladi. Aslida bu inson shuurida uxlab yotgan, o'sha ilk odam yaralgan paytdagina unga

kiritilgan ruh bilan birga kelgan, inson shuuridagi o'sha samoviy hayajonlarning ibtidosidan darak beradigan go'zallikni ko'rib

beixtiyor ilkis uyg'onishdir. San'at ana shu samoviy hissiyotlarni uyg'otgani uchun ham samoviydir. Ijod go'zallikni yaratish va

go'zallik uning yaralish jarayonidir. Ayni shu jarayon zavqning Odam Ato yaralayotgan davrdagi zavq bilan uyg'unligi bor. Ijod

zavqi yo'q barcha narsa yasama va soxtadir. Ijod ilohiy zavq lazzatidir. Men shuning uchun ham ijodning o'zini butun boshli

falsafa, deb o'ylayman.

- Qahramonlaringizning milliy nimalarda ko'rinadi?

- Mening o'zimda ko'rinadi. Men o'zbekka o'xshaymanmi? Menda milliy "atribut"lar bormi? Agar men o'zbek bo'lsam, qo'rqmang,

qahramonlarim ham o'zbek. Ularni men hech qaysi mamlakatdan olib kelganim yo'q. Ular shu zaminda dunyoga kelgan. Faqat ular

ko'proq tasavvurga berilishlari bilan g'alatiroq tuyuladi, xolos.

- Milliylik yaratiladimi, paydo bo'ladimi?

- Milliylik mavjud hodisa. Uning paydo bo'lishiga hojat yo'q. Yozuvchi uni yaratmaydi, aks ettiradi. Keyin adabiyotshunoslar uni

o'rganishadi. Aslida hammasi bir butunning turli ko'rinishi. Bu savolingizga yozuvchidan ko'ra adabiyotshunoslar boplab javob

berishadi. Chunki bu savolning javobi yozuvchiga keragi yo'q. U bu savolga javob topmay ham yozaveradi.

Suhbatdosh: Gulnoz Sattorova